



CATEGORICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF POLITICAL STABILITY

Alisher Ibragimov

lecturer

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Globalization, stability, political stability, social democratic reforms, stagnation, democratic institutions, geopolitics, diplomacy, security, international relations, political integration, legitimacy, progressive development, categorical analysis, governance, political instability, civil society, sociological method, middle class, political values, security context, political will, radical change.

Received: 13.03.25

Accepted: 15.03.25

Published: 17.03.25

Abstract: This article studies the concept of political stability as a scientific category, analyzes the mechanisms for ensuring political stability in the context of globalization, the laws of quantitative and qualitative indicators in assessing political stability factors, the need for democracy to guarantee stability, the concept of "stability" in describing the state of the political system, and conducts a scientific, theoretical, and methodological analysis of the role of democratic institutions in socio-political stability, the level of preparation of society, and the mutual harmony of institutions.

SIYOSIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING KATEGORIAL TAHLILI

Alisher Ibragimov

o'qituvchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Globallashtiruv, barqarorlik, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy-demokratik islohotlar, turg'unlik, demokratik institutlar, geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik, xalqaro munosabatlar, siyosiy integratsiya, legitimlik, tadrijiy rivojlanish, kategorial tahlil, boshqaruv, siyosiy beqarorlik, fuqarolik jamiyati, sotsiologik metod, o'rta sinf, siyosiy qadriyatlar, xavfsizlik konteksti, siyosiy iroda, radikal o'zgarish.

Annotatsiya: Mazkur maqolada siyosiy barqarorlik tushunchasini ilmiy kategoriya sifatida o'rganilishi, globallashtiruv sharoitida siyosiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari tahlili, siyosiy barqarorlik omillarini baholashda miqdoriy va sifat ko'rsatkich qonuniyatlari, demokratiya barqarorlikni kafolatlash zarurligi, siyosiy tizim holatini tavsiflashda "turg'unlik" tushunchasi, ijtimoiy – siyosiy barqarorlikda demokratik institutlar, jamiyatning tayyorgarlik darajasi va institutlarning o'zaro uyg'unligi ilmiy, nazariy

КАТЕГОРИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ**Алишер Ибрагимов***преподаватель**Джизакский государственный педагогический университет**Джизак, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Глобализация, стабильность, политическая стабильность, социал-демократические реформы, стагнация, демократические институты, геополитика, дипломатия, безопасность, международные отношения, политическая интеграция, легитимность, прогрессивное развитие, категориальный анализ, управление, политическая нестабильность, гражданское общество, социологический метод, средний класс, политические ценности, контекст безопасности, политическая воля, радикальные изменения.

Аннотация: В статье рассматривается понятие политической стабильности как научной категории, анализируются механизмы обеспечения политической стабильности в условиях глобализации, закономерности количественных и качественных показателей в оценке факторов политической стабильности, необходимость демократии для обеспечения стабильности, понятие «стабильность» в характеристике состояния политической системы, проводится научно-теоретический и методологический анализ роли демократических институтов в обеспечении социально-политической стабильности, уровня подготовки общества и взаимной гармонии институтов.

Siyosiy barqarorlikni ta'minlash masalasi ijtimoiy-gumanitar fanlarning paydo bo'lishi va fan sifatida shakllanish davridanoq ilmiy izlanuvchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Zero, har qanday barqarorlikning "u xoh iqtisodiy, xoh ijtimoiy yoki ma'naviy bo'lsin" boshlanishi, unga erishish birinchi navbatda siyosiy barqarorlikka erishishdan boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Globallashib borayotgan dunyoda, tinchlik va barqarorlikka qarshi turli tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda xalqimiz hayotidagi o'zgarishlar va ularning tadrijiy rivojlanish darajasi, ushbu jarayonga xos umumiy qonuniyatlarning amalga oshishi va bu bilan bog'liq o'ziga xos milliy xususiyatlarga alohida e'tibor qaratish lozim". Shu ma'noda, siyosiy barqarorlik tushunchasi siyosiy fanlarning muhim kategoriyalaridan biri bo'lib, uning ilmiy-nazariy asoslari uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan. Mazkur tushunchaning mazmun – mohiyatini anglash uchun, avvalo, uning konseptual asoslarini bugungi zamon talablaridan kelib chiqqan holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Milliy taraqqiyotimiz davomida "ijtimoiy" va "siyosiy" sohalarining o'zaro uyg'unligi, bir-biriga ta'siri masalalari siyosiy fanning tadqiqot obyekti bo'lib, aynan shu doirada siyosiy

barqarorlik masalasi ham tadqiq etiladi. Bu esa o'z navbatida, siyosatshunoslik va sotsiologiya metodlarni qo'llashni talab etadigan murakkab va ko'p qirrali muammodir.

Siyosiy barqarorlik tushunchasini ilmiy kategoriya sifatida o'rganish eng avvalo, barqarorlik hodisasini tushunishdan boshlanadi. Ilmiy manbalarda bu tushuncha o'ziga xos talqinlarda aks etgan. Jumladan, Milliy qomusimizning birinchi jildida "barqarorlik" va "o'zgaruvchanlik" hodisalari o'zaro qiyoslanib, ular quyidagicha ta'riflangan: "Barqarorlik – narsa va hodisalarga xos muayyanlikni ifodalab, o'zgaruvchanlik – ularning ma'lum bir holatdan boshqa bir holatga o'tish jarayonini bildiradi. Dialektik yondashuvga ko'ra, barqarorlik va o'zgaruvchanlikni o'zaro uzviy birlikda, mavjud dialektik qarama-qarshiliklar tarzida olib qaraydi".

"Xalqaro munosabatlar (geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik)" nomli siyosiy lug'atda, "barqarorlik – izchil, bir tekis rivojlanish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tizimi, davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini ifodalovchi tushuncha" deb ko'rsatilgan. Barqarorlik tushunchasi haqida so'z yuritgan professor Sh.Paxrutdinov unga quyidagicha izoh bergan: "Barqarorlik tushunchasiga "o'zgarmas", "turg'unlik" kabi kategoriyalar yaqin. Ular ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida sodir bo'luvchi ayrim jarayonlarni mazmunan tavsiflaydi".

Barqarorlik tushunchasi va unga oid yondashuvlarni umumlashtirib quyidagi ta'rifni keltirish mumkin: Barqarorlik - bu tizimning o'z holatini saqlab qolish va rivojlanish qobiliyati, tashqi va ichki ta'sirlarga qaramay, o'z funksiyalarini bajara olish xususiyatidir. Ta'rifning ishonchliligini asoslash maqsadida ayrim nazariyotchi olimlarning yondashuvlarini ko'rsatib o'tamiz.

Robert Merton, Devid Iston, Gabriel Almond, Moris Dyuverje, Karl Doych kabi olimlar ham barqarorlik tushunchasini jamiyatning muayyan sohasi yoki yo'nalishi bilan bog'lab o'rganishgan. Masalan, Merton barqarorlikni ijtimoiy tizimning muvozanatli holati sifatida ko'radi. U barqarorlikni ta'minlashda ijtimoiy institutlarning ochiq va yashirin funksiyalariga alohida e'tibor qaratadi. Iston esa barqarorlikni siyosiy tizimning "kirish" va "chiqish" jarayonlari orqali tushuntiradi. Uning fikricha, barqarorlik - bu tizimning talablar va qo'llab-quvvatlashlarni samarali boshqara olish qobiliyatidir. Gabriel Almond barqarorlikni siyosiy madaniyat bilan bog'lab o'rgangan bo'lib, u barqaror tizim uchun fuqarolar siyosiy madaniyatining yuqori darajada bo'lishi muhimligini ta'kidlaydi. Dyuverjega ko'ra barqarorlikni ta'minlash ko'p jihatdan jamiyatdagi siyosiy partiyalar faolligiga bog'liq bo'lib, tizimli barqarorlikka erishi uchun partiyalar tizimi muvozanatli bo'lishi kerakligini aytadi.

Siyosiy barqarorlik tushunchasining ilk ilmiy talqinlari g'arb siyosiy fanida shakllangan. Xususan, T.Parsonsning "The Social System" (Ijtimoiy tizimlar) asarida "ijtimoiy tizimning

barqarorligini ta'minlovchi to'rtta asosiy funksiya - moslashuv, maqsadga erishish, integrasiya va legitimlik masalalari tahlil etilgan. Parsons nazariyasiga ko'ra, siyosiy barqarorlik ijtimoiy tizimning muvozanatli holatini aks ettiradi".

S.Xantington esa o'zining "Political Order in Changing Societies" (O'zgarayotgan jamiyatlardagi siyosiy tartibot) asarida siyosiy barqarorlikni institutlashuv darajasi bilan bog'laydi. Uning fikricha, "siyosiy institutlarning rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyatdagi barqarorlik shunchalik mustahkam bo'ladi". Bu yondashuv keyinchalik ko'plab tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirildi. Asarning o'ziga xosligi shundaki, unda rivojlanayotgan mamlakatlardagi siyosiy barqarorlik va institutlar shakllanishi masalalari tahlil qilingan.

S.Lipsetning "Political Man: The Social Bases of Politics" (Siyosiy inson: Siyosatning ijtimoiy asoslari) asarida siyosiy barqarorlikning ijtimoiy-iqtisodiy omillariga alohida e'tibor qaratdi. "U demokratik tizimlarning barqarorligi iqtisodiy rivojlanish darajasi, ta'lim tizimining samaradorligi va o'rta sinfnin mavjudligi bilan bevosita bog'liq ekanligini isbotlab berdi".

Lipsetning yuqorida keltirilgan asarida jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta'minlashning muhimligi va ehtiyoji alohida o'rganilgan bo'lib, quyidagi konseptual qarashlarni o'zida aks ettiradi:

Olinga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish demokratik barqarorlikning asosiy sharti bo'lib, u boy mamlakatlarda demokratiya barqaror bo'lish ehtimoli yuqori deb hisoblaydi. Ta'lim darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda siyosiy barqarorlik kuchliroq bo'ladi. Chunki malakali odamlar siyosiy qarorlarni oqilona qabul qilishadi va keskin harakatlardan o'zlarini tiyishadi. Shu bilan birga, o'rta sinf kuchli bo'lgan jamiyatlarda siyosiy barqarorlik yuqori bo'ladi. O'rta sinf radikal o'zgarishlarga qarshi turadi va mo'tadil siyosatni qo'llab-quvvatlaydi.

Lipsetning tushuntirishcha, siyosiy barqarorlik uchun jamiyatda legitimlik (qonuniylik) muhim. Ya'ni, xalq hukumatni va siyosiy tizimni qonuniy deb tan olishi talab etiladi. Siyosiy tizim samarali ishlashi kerak. Agar hukumat odamlarning muammolarini hal qila olmasa, uning legitimligi pasayadi va bu barqarorlikka tahdid soladi. Shuningdek, jamiyatda turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida kelishuv bo'lishi kerak. Lipset siyosiy barqarorlikni iqtisodiy rivojlanish, ta'lim, kuchli o'rta sinf va legitimlik bilan bog'laydi. Uning fikricha, bu omillar demokratik tizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Rus olimlarining tadqiqotlarida siyosiy barqarorlik masalasi yangi qirralar bilan boyitildi. A.S.Panarin "globallashuv sharoitida siyosiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini tahlil qilgan bo'lsa", V.I.Pantin siyosiy barqarorlikning siklik nazariyasini ishlab chiqdi. N.V.Ivanov

esa zamonaviy jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta'minlashning institusional mexanizmlariga e'tibor qaratdi.

Panaringa ko'ra, siyosiy barqarorlik faqat davlatning kuch-qudrati bilan belgilanmaydi, balki madaniy va ma'naviy omillar ham barqarorlikni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rossiya va postsovet makonida siyosiy barqarorlikka erishish madaniy qadriyatlar asosida amalga oshishi mumkin. Olim globallashuv sharoitida milliy davlatlar barqarorligiga tahdidlar kuchayishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, g'arb madaniyati ta'sirining kuchayishi mahalliy qadriyatlar va barqarorlikka xavf tug'diradi deb hisoblaydi. Panarin siyosiy barqarorlikni ta'minlashda davlatning strategik rejalashtirish rolini muhim deb biladi. Davlat uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga ega bo'lishi – barqarorlikka erishishning muhim shartlaridan biridir.

Yuqorida nomlari keltirilgan ikkita g'arb olimidan farqli ravishda Panarin siyosiy barqarorlikni keng ma'noda - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillarning uyg'unligi sifatida e'tirof etgan.

MDH mamlakatlari olimlari orasida K.S.Gadjiyev, M.T.Baymaxanov va A.A.Akayevlarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular postsovet makonida siyosiy barqarorlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga katta hissa qo'shdilar.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda siyosiy barqarorlik masalasi milliy xususiyatlar nuqtai nazaridan o'rganilgan. Sh Paxrutdinov, S.O.Otamuratov siyosiy barqarorlikni milliy xavfsizlik kontekstida tahlil qilgan bo'lsa, Q.N.Nazarov uning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etgan. M.A.Ahmedova va Sh.O.Mamadaliyev esa siyosiy barqarorlikni ta'minlashning amaliy mexanizmlarini o'rganganlar.

Siyosiy barqarorlik turlarini aniqlashda siyosiy tizimlar tipologiyasiga asoslanish eng samarali usul hisoblanadi. Har bir siyosiy tuzumda o'ziga xos barqarorlik turi mavjud bo'lib, u barqarorlikni o'rnatish va saqlash mexanizmlariga qarab farqlanadi. Jamiyatdagi muvozanatni ta'minlashda ikki asosiy mexanizm mavjud bo'lib, ular boshqaruv mexanizmlari va fuqarolik jamiyatining o'zini o'zi tartibga solish mexanizmlaridan iboratdir. Siyosiy barqarorlik ko'p omilli, ammo tizimli hodisa sifatida qaralganda, uni o'rganishning eng samarali usuli - omillarni tahlil qilish orqali uning turi va darajasini aniqlashdir. Bunday tahlilning maqsadi umumlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimini yaratishdir. Bu tizim nafaqat barqarorlikning alohida komponentlari mavjudligi yoki yo'qligini, balki umuman siyosiy sohaning holatini baholash imkonini beradi.

Jamiyatda siyosiy barqarorlik mavjud deb hisoblash uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- Barqaror siyosiy institutlarning mavjudligi, tizimli ishlashi talab etiladi;

- Siyosiy institutlar legitim faoliyat yuritishi, samaradorligi va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olishi bilan baholanadi;
- Jamiyatning siyosiy madaniyati, ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlari mavjud siyosiy tizim bilan integrasiyalashuviga ko'ra baholanadi;
- Davlat hokimiyati organlari samarali va qonuniy faoliyat yuritishiga qarab siyosiy barqarorlik mezonlarini ko'rsatib berish mumkin.

Davrimizning yetakchi siyosatshunoslari va sotsiologlarining yakdil qarashlari shundan dalolat beradiki, jamiyatdagi barcha ijobiy o'zgarishlarning zahirida siyosiy barqarorlik yotadi. O'z navbatida, siyosiy barqarorlik quyidagi omillarga asoslanadi: "boshqaruv tizimini saqlab qolish, fuqarolik tartibini o'rnatish, legitimlikni saqlash va boshqaruvning ishonchliligi (samaradorligi)ni ta'minlash". Siyosiy barqarorlikning eng mos ta'rifini izlash jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, unga nisbatan bildirilgan fikrlar, qarashlar va yondashuvlarning o'zi yakdil xususiyatga ega emas. Ko'p hollarda tadqiqotchilar siyosiy barqarorlik mezonlarini ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik mezonlari bilan chalkashtirib yuborishadi. "Ba'zida siyosiy barqarorlikni butun jamiyat tizimining barqarorligi bilan aynanlashtirishadi, bu esa uning doirasini sezilarli darajada kengaytiradi, yoki hukumat barqarorligi bilan bog'lashadi, bu esa aksincha uning doirasini ancha toraytiradi. Muammoni o'rganishga bunday qarama-qarshi yondashuvlarning mavjudligi, bu masala eng zamonaviy nazariy-metodologik yondashuvlarni qo'llagan holda chuqur ilmiy tahlilga muhtoj ekanligini tasdiqlaydi".

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mutlaq siyosiy barqarorlik bo'lmaydi. Agar shunday bo'lganida, bu siyosiy tizimning to'liq harakatsizligini anglatgan bo'lar edi. Hatto eng barqaror siyosiy davlatda ham hukumatning almashinuvi, muxolifat faoliyati va shu kabi jarayonlar barqarorlikka u yoki bu ko'rinishda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, demokratik tuzumning siyosiy barqarorligi o'zgarmas emas. Hatto shuni aytish mumkinki, demokratiya barqarorlikni kafolatlamaydi. Bu tushunarli, chunki demokratik tizim doimiy rivojlanuvchi va dinamik xarakterga ega. Demak, siyosiy kurash bir tomondan demokratik jarayonning xususiyati bo'lsa, boshqa tomondan siyosiy beqarorlik omili bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda siyosiy tizim holatini tavsiflash uchun "turg'unlik" tushunchasi ham qo'llaniladi.

"Turg'unlik jarayonlarni ularning o'zgarishlarni oldindan ma'lum bo'lgan chegara va parametrlarda ushlab tura olish qobiliyati nuqtai nazaridan belgilaydi. U tizimning buzilgan muvozanatni tiklash imkoniyatlarini namoyon etadi. Turg'unlik o'zgarmaslikni anglatmaydi albatta. Ko'pincha turg'unlik o'zgarishlarning doimiyliigi va oldindan aytib berish mumkinligini anglatadi. Mos ravishda, beqarorlik siyosiy tizim rivojlanishining shunday natijalari orqali namoyon bo'ladiki, ular bir tomondan kutilmagan, boshqa tomondan esa nomaqbul hisoblanadi".

Umuman olganda, siyosiy barqarorlikka erishish - murakkab jarayon bo'lib, u nafaqat demokratik institutlarning mavjudligiga, balki ularning samarali ishlashiga, jamiyatning tayyorgarlik darajasiga va institutlarning o'zaro uyg'un faoliyatiga bog'liq. Turg'unlik esa tizimning o'zgarishlarni boshqara olish va muvozanatni saqlash qobiliyatini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “O‘zbekiston” – 2021. Б-457.
2. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 1- жилд. Т.: 2000. Б-642.
3. Huntington S. Political Order in Changing Societies. - Yale University Press, 1968. - P.12
4. Lipset S.M. Political Man: The Social Bases of Politics. - New York, 1960. - P.45
5. Parsons T. The Social System. - London: Routledge, 1991. - P.167.
6. Панарин А.С. Глобальное политическое прогнозирование.- М.: Алгоритм, 2002. - С.188
7. Пахрутдинов Ш.И. Барқарор тараққиёт ва раҳбар масъулияти. Тошкент – 2011. “Академия” нашриёти. Б-125.
8. Савин С.Д. Политическая стабильность в изменяющемся обществе: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук: спец. 23.00.02 - Политические институты, этнополитическая конфликтология, национальные и политические процессы и технологии. СПб., 2003. 29 с
9. Соловьев А.И. Политология: Политическая теория, политические технологии: Учебник для студентов вузов. М.: Аспект Пресс, 2000. 559 с
10. Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик). Т.: “Akademiya” нашриёти. 2006. Б-10.